



## **Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation**

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

### **TRANZIT YUKLAR USTIDAN BOJXONA NAZORATINI AMALGA OSHIRISHDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI VA AMALIYOT**

Polkovnik M. Xamrayev

Bojxona instituti boshlig‘i v.b., dotsent,

#### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada xalqaro savdo va global ta‘minot zanjirlarining uzluksizligini ta‘minlashda tranzit yuklar tashuvida bsamaralai bojxona nazoratini tashkil etishdagi ilg‘or xorijiy tajribalar tahlil qilingan va ularning tajribalarini bojxona amaliyotiga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** bojxona tashkiloti, tranzit yuklar, bojxona nazorati, xalqaro tajribalar, integrativ-axborot, “e-Tranzit” tizimi, matematik algoritmlar, Big Data, elektron dastlabki deklaratsiyalash.

### **АНАЛИЗ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА И ПРАКТИКА ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ ТАМОЖЕННОГО КОНТРОЛЯ ЗА ТРАНЗИТНЫМИ ГРУЗАМИ**

Полковник М. Хамраев

Исполняющий обязанности начальника

Таможенного института, доцент

#### **Аннотация:**

В данной статье проанализированы передовые зарубежные практики организации эффективного таможенного контроля при перевозке транзитных грузов в целях обеспечения непрерывности международной торговли и



## Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

глобальных цепочек поставок, а также представлены научные предложения и рекомендации по внедрению данного опыта в таможенную практику.

**Ключевые слова:** таможенная организация, транзитные грузы, таможенный контроль, международный опыт, интеграционно-информационные системы, система «е-Транзит», математические алгоритмы, Big Data, электронное предварительное декларирование.

### ANALYSIS OF ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE AND PRACTICE IN IMPLEMENTING CUSTOMS CONTROL OVER TRANSIT CARGO

Colonel M. Khamrayev

Acting Head of the Customs Institute, Associate Professor

#### Abstract

This article analyzes advanced foreign practices in organizing effective customs control in the transportation of transit cargo to ensure the continuity of international trade and global supply chains. It also presents scientific proposals and recommendations for implementing these practices into customs operations.

**Keywords:** customs organization, transit cargo, customs control, international practices, integrated information systems, “e-Transit” system, mathematical algorithms, Big Data, electronic pre-arrival declaration.

#### Kirish

Jahonda xalqaro savdo va global ta'minot zanjirlarining uzluksizligini ta'minlashda tranzit yuklar tashuvi hamda ular ustidan samarali bojxona nazoratini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon Bojxona Tashkilotining (JBT)



## Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

baholashicha, global logistika zanjirining ishonchliligi, tovar harakatining tezligi va bojxona jarayonlarining shaffofligi bevosita tranzit tartibotlarini raqamlashtirish hamda “Yagona darcha” tizimlarini qo‘llashga bog‘liqdir[1].

Yevropa Ittifoqining tranzit nazorati arxitekturasi to‘liqligicha “Yangi kompyuterlashtirilgan tranzit tizimi” (New Computerised Transit System – NCTS) platformasiga asoslanadi[2]. Mazkur tizim Yevropaning 35 dan ortiq davlatlarini yagona tranzit makoniga aylantirgan bo‘lib, uning fundamental mohiyati - jismoniy bojxona nazoratini ma’lumotlarning masofaviy va intellektual auditi bilan almashtirishdan iboratdir. NCTS tizimida tranzit operatsiyasi boshlanishi bilan yukka noyob Asosiy ma’lumotnoma raqami (Master Reference Number – MRN) beriladi va butun yo‘nalish bo‘ylab barcha idoralar ushbu raqam orqali faqatgina raqamli baza bilan ishlaydi, yuk mashinasining o‘zi esa ichki chegaralarda asossiz to‘xtatilmaydi[3].

Ushbu ilg‘or xorijiy amaliyot dissertatsiya tadqiqotining birinchi ilmiy yangiligi bo‘lmish — “e-Tranzit” axborot-boshqaruv konsepsiyasining xalqaro standartlarga to‘la mos kelishini va makroiqtisodiy jihatdan zaruratini tasdiqlaydi. Jahon bankining logistika samaradorligi (LPI) hisobotlariga ko‘ra, NCTS kabi tizimlarning joriy etilishi tranzit yuk avtomobillarining chegaralardagi ma’muriy kutish vaqtini o‘rtacha 70-80 foizga qisqartirish imkonini bergan<sup>1</sup>. Xuddi shunday institutsional mantiq O‘zbekiston sharoitiga implementatsiya qilinganda, ya’ni “e-Tranzit” axborot-boshqaruv konsepsiyasi amaliyotga to‘liq joriy etilganda, tranzit deklaratsiyasini rasmiylashtirish va nazorat qilish uchun sarflanadigan o‘rtacha 90-120 daqiqalik vaqt normasining 20-30 daqiqagacha (o‘rtacha 70-75 foizga) qisqarishi kafolatlanadi.

<sup>1</sup> Arvis J.F., Ojala L. et al. Connecting to Compete 2023: Trade Logistics in the Global Economy. – Washington, DC: World Bank, 2023. – P. 34-36.



## Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Bundan tashqari, Yevropa bojxona ma'muriyatchiligida tranzit jarayonlarining tezkorligi Jahon bojxona tashkilotining "Oldindan ma'lumot berish" tamoyiliga tayanadi<sup>2</sup>. Ya'ni, xavfni baholash jarayoni yuk chegaraga yetib kelguniga qadar, NCTS serverlarida avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Dissertatsiyada taklif etilayotgan modelda ham aynan mana shu xorijiy ilg'or algoritm O'zbekistonning geoiqtisodiy sharoitiga moslashtirilgan holda qo'llanilgan bo'lib, tranzit vaqtining keskin tejalishi fizik ko'riklarning qisqarishi hisobiga emas, balki axborotni qayta ishlash tezligining mashinaviy (algoritmik) darajaga olib chiqilishi bilan ta'minlanadi. Bu esa bojxona nazoratining tezkorligi va sifatini Yevropa Ittifoqi standartlari darajasiga ko'taruvchi asosiy tashkiliy-texnologik yechim hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi tajribasining yana bir e'tiborga molik jihati - bu tranzit nazoratida inson omilini minimallashtiruvchi "Umumiy xavfni boshqarish tizimi" (Common Risk Management Framework – CRMF) ning amaliyotga keng joriy etilganligidir<sup>3</sup>. Ushbu arxitektura tranzit deklaratsiyalarini tasodifiy yoki subyektiv emas, balki aniq matematik algoritmlar va katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili asosida tekshirishni ta'minlaydi. Natijada, YEI bojxona hududida fizik ko'rikdan o'tkaziladigan tranzit yuklar ulushi umumiy oqimning atigi 2-3 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich dissertatsiyada taklif etilayotgan "e-Tranzit" tizimining mantiqiy va institutsional asosini yanada kuchaytiradi. Ya'ni, O'zbekiston bojxona postlarida ham nazoratning asosiy og'irligini jismoniy tekshiruvdan intellektual serverlarga (masofaviy skrining va log-fayllar tahliliga) ko'chirish - bojxona rasmiylashtiruv vaqtini kafolatlangan tarzda 20-30 daqiqagacha qisqartirishning yagona va eng samarali vositasidir.

<sup>2</sup> World Customs Organization. SAFE Framework of Standards to Secure and Facilitate Global Trade. – Brussels: WCO, 2021. – P. 18-20.

<sup>3</sup> European Court of Auditors. Customs Controls: Insufficient Harmonisation Hampers EU Financial Interests. / Special Report No 04/2021. – Luxembourg, 2021. – P. 22-25.



## Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Shuningdek, NCTS platformasining makroiqtisodiy miqyosdagi muvaffaqiyati uning xalqaro tizimlar, xususan TIR-EPD (Elektron dastlabki deklaratsiyalash) bazasi bilan to‘liq integratsiya qilinganligida namoyon bo‘ladi<sup>4</sup>. Bunday o‘zaro muvofiqlik tashuvchilarga bitta portal orqali ham milliy, ham xalqaro tranzit kafolatlarini boshqarish imkonini beradi va idoralararo takrorlanishlarni (data redundancy) keskin kamaytiradi. Xalqaro transport forumi (ITF) ekspertlarining ta’kidlashicha, bojxona tizimlarining xalqaro tranzit ma’lumotlar bazalari bilan avtomatik axborot almashinuvi chegaradagi transaksion va ma’muriy xarajatlarni kamida 15-20 foizga qisqartiradi<sup>5</sup>.

Demak, YEI tajribasidagi mazkur integrativ mexanizmlarni O‘zbekistonning geoiqtisodiy sharoitiga moslashtirish va “e-Tranzit” konsepsiyasiga singdirish nafaqat milliy savdo yo‘laklaridagi mahalliy to‘siqlarni bartaraf etadi, balki bojxona nazoratining raqamli infratuzilmasini xalqaro tranzit koridorlariga to‘laqonli va uzluksiz bog‘lanishini ta’minlaydi.

Xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganishning ikkinchi muhim yo‘nalishi – bu tranzit operatsiyalarida integrativ-axborot boshqaruvi va ma’muriy xarajatlarni minimallashtirish mexanizmlarini tadqiq etishdir. Tranzit vaqtini qisqartirish faqatgina fizik nazoratni kamaytirish bilan emas, balki katta hajmdagi qog‘ozbozlik va hujjat aylanmasini yo‘q qilish bilan bevosita bog‘liq. Bu borada Osiyo qit’asining yetakchi davlatlari, xususan Janubiy Koreya va Singapur modellari jahon bojxona ishida o‘ziga xos fenomenal natijalarni namoyon etgan.

<sup>4</sup> United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). eTIR Concepts and the Integration with NCTS. – Geneva: UN, 2022. – P. 18-21.

<sup>5</sup> International Transport Forum. Enhancing Connectivity and Freight in Central Asia. – Paris: OECD Publishing, 2019. – P. 88-91.



## Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-21-sonli Farmoni. 2026-yil 16-fevral.
2. World Customs Organization. Annual Report 2021–2022. – Brussels: WCO, 2022. – URL: <https://www.wcoomd.org>.
3. European Commission. The New Computerised Transit System (NCTS) Phase 5: Transition and Implementation. – Brussels: Directorate-General for Taxation and Customs Union, 2023. – P. 12-15.
4. Grainger A. Customs Management and Trade Facilitation. – London: Kogan Page, 2021. – P. 104-106.
5. Arvis J.F., Ojala L. et al. Connecting to Compete 2023: Trade Logistics in the Global Economy. – Washington, DC: World Bank, 2023. – P. 34-36.
6. <https://lex.uz/docs/-8050769>.